

## MUTAASSIBLIK: PSIXOLOGIK TALQIN VA YONDASHUVLAR

*Sh.Shodiboyev – Din psixologiyasi mutaxassisligi*

*2-bosqich magistranti*

XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib, ommaviy qirg'in qurollari o'z kuchini yo'qotib, bir mamlakatning o'ziga siyosiy va iqtisodiy qaram qilib olish uchun mamlakatning yetakchi dinida turli oqimlarni yuzaga keltirish va ular o'rtasida nizo chiqarish, xunrezlikni avj oldirish orqali tinch, obod mamlakatni poligonga (qurollarni sinash maydoni)ga aylantirishga xizmat qiluvchi ko'zga ko'rinmas aqidapaslik quroli birinchi o'ringa chiqib oldi. Mazkur qurol vazifasini bajaruvchilar ko'pchilik e'tibor bermaydigan diniy bilimi sayyoz va e'tiqodi sust jamiyat a'zolari bo'lib, ular jamiyatni ichidan kemiruvchilar ya'ni ko'zi ko'r qulog'i kar mutaassiblar ekanligini jahon hamjamiyati e'tirof etmoqda. Mutaassiblik din yoki siyosiy yo'nalishda bo'lishidan qat'i nazar, uni manfur urug'i sepilsa, u pechakdek unib chiqib atrofidagi gullarga chirmashib o'zining "fundamentalizm", "ekstremizm" va "terrorizm" kabi zahri qotil tikanlari tinchlik sevar insoniyatga sanchishga hamma vaqt tayyor turadi.

Ilmiy va ommaviy manbalarda keng qo'llanib kelinayotgan "mutaassiblik", "fundamentalizm", "ekstremizm" va "terrorizm" kabi atamalarni ko'pchilik tushunsa-da, ularni har kim o'zicha idrok va talqin etishi mumkin. Yuqoridagi atamalar umumbashariyat tomonidan tan olingan va xalq qo'llab quvatlab kelayotgan qonuniy hoqimiyatga qarshi kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga tegishlidir. Mutaxassislik nuqtai nazaridan kelib chiqib, mutaassiblik va mutaassib shaxsni ijtimoiy- psixologik qiyofasini imkon darajada ilmiy asosda izohlashga harakat qilamiz.

Aksari manbalarda "Mutaassiblik - (arab. "g'uluv ketish", "chuqur ketish") muayyan g'oyalarning to'g'ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilish, "o'zgalar" va "o'zgacha" qarash hamda g'oyalarga murosasiz munosabatda bo'lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etishi, ularni tan olmaslikda namoyon bo'ladi" deb ta'rif beriladi.

"Mutaassiblik"ka ijtimoiy psxologiya fani nuqtai nazaridan ta'rif beradigan bo'lsak, "Shaxsni biror – bir nazariya yoki g'oyani ilgari suruvchi shaxsga bilimsizligi (tajribasizligi) ta'sirida ko'r-ko'rona ruhan ixlos qilib ergashishi hamda o'zini idrok va irodasini boshqarishni rahnomosiga topshirishi hamda o'zligidan ixtiyoriy ravishda voz kechish tushiniladi. O'z navbatida, uni psixofizologik asosini shaxsning bosh miyasidagi bir nerv markazi asta-sekinlik bilan kuchli "dominant"likka (ustunlikka) erishishi natijasida boshqa nerv markazlarini kuchli tormizlanishi qonuniyati tashkil etadi.

Yuqoridagi yondashuvlardan xulosa qiladigan bo'lsak, "mutaassiblik" shaxsni onglilikdan asta-sekin ongsizlik (manqurtlik) holatiga o'tishidir desak ham bo'ladi.

Mutaassiblik insoniyat bosib o'tgan barcha ijtimoiy rivojlanish bosqichlarda turli din va ijtimoiy yo'nalishlar orasida keskin bo'linish, tarafbozlik, guruhbozlik, ommaviy tartibsizliklar, nizo hamda to'qnashuvlar kelib chiqishiga turtki vazifasini bajarib kelgan. Shu sababli ham sotsiologlar mutaassiblikni "yashirin davrga ega tajavuzkor guruh" sifatida o'rganib kelishadi.

Tajovuzkor guruh rahnamolarini g'arazli yo'riqnomalari asosida ongi zaharlangan mutaassiblar, jamiyatda faqat o'zlari amalga oshirayotgan faoliyatlarini to'g'ri yo'nalgan deb bilib, har qanday xunrezlikdan ham qaytmaydilar. Xozirgi kunga kelib mutaassiblikni g'ayri insoniy xulq-atvori kurrai zaminimizni turli nuqtalarida yuz berayotgan xunrezlik va brodarkushlik hamda tinch aholiga nisbatan amalga oshirilayotgan qo'poruvchilik harakatida aks etmoqda.

Faqat o'z diniy qarashiga asoslangan bag'rikenglikdan uzoq buzg'unchi g'oyaga, o'z diniy g'ururini pesh qilib, dunyoviy va diniy bilimlari sayoz, sof diniy qadriyatlarning asl mazmunini bilmaydigan kishilar mutaassiblik g'oyalarning ko'r-ko'rona tarqalishiga sabab bo'ladilar. Ko'pgina xollarda ularni turli usullar bilan kichik guruhlariga birlashtirib va boshqariladi. Makur ijtimoiy jarayonning eng xatarli jihati dinni siyosiy lashtirish orqali davlat boshqaruviga aralashuv va hoqimiyatga intilish, dinni o'z man'fati nuqtaiy nazaridan talqin qilish bilan odamlar orasiga nizo solish, tinch-farovon jamiyatda qo'rquv hamda tartibsizliklarni keltirib chiqarish uchun turli qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g'arazli manfaatlariga erishish yo'lida qilayotgan g'arazli harakatlarida namoyon bo'lmoqda.

O'z-o'zidan ko'rinadi-ki diniy ekstremizm yuzaga kelishining birinchi va asosiy omili mutaassiblikka oid fikr hamda qarashlarning targ'ib qilishidir. Mazkur vazifani bajarishni daslabki bosqichi; missioner shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Missioner shaxs biror bir manzilga kelib, o'zi bilan olib kelgan kitob va targ'ib qilayot g'oya hamda qarashlarga oid manbaalarni biror-bir mahsulotga qo'shib tekinga tarqatadi. Bundan tashqari missioner o'ziga kimlar hayrixohligini aniqlab ular bilan mustahkam a'loqa o'rnatishga harakat qiladi. Undan keyin o'z navbatini kutib turgan davatchilar ishga kirishib, o'z o'ljalarini biror guruhga a'zo qilib, g'oyalarni singdirigan holda keyingi bosqichga ya'ni mutaassiblarni tayyorlovchi guruhlariga yo'l ochib beradilar.

Mutaassiblik har bir sohada, masalan ilmiy, ijtimoiy, diniy va dunyoviy sohalarda uchrab turadigan holat bo'lib, din va jamiyatning rivojlanishiga to'sqinlik qilishga harakat qilib ko'ruvchi omillardan biridir. Shuningdek, mutaassiblik va g'uluv diniy – aqidaviy va fiqhiy sohalarda namoyon bo'lib, har xil ixtiloflar

man'bayi sifatida, bir dini tarkibda turli ijtimoiy va siyosiy oqimlarga bo'linib ketishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Diniy mutaassiblikning ijtimoiy psixologik sabablaridan biri diniy ilimlarni bilmaslikdir. Islom tarixda bunday e'tiqoddagi kishilardan ayrimlari islom dinida peshvo sanalgan salaf ulamolarni, hatto Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning sahobalarini ham "kofir" deb atashgacha borganliklariga tarix guvohidir desak xato bo'lmaydi.

Qariyb o'n asr avval Kaykovus tomonidan bashariyatga tuhfa qilingan "Qobusnoma" asarida, "Xaloyiq to'rt navga bo'linadi: Biri ulkim, bilur bilg'onin ham biladi. Ul olimdir, unga tobe bo'lmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas, bilmag'onin bilur, ul qobildir, unga o'rgatmoq kerak. Biri uldurkim, bilur va bilg'onin bilmas, ul uyqudadir, uni bedor qilmoq kerakdir. Biri uldirkim, bilmaydi, bilmas va bilmog'onin ham bilmas. U johildir, undan qochmoq kerakdir"<sup>1</sup>.

Kaykovus tomonidan ta'riflangan to'rtinchi toifadagi shaxs aynan mutaassib shaxsga mos keladi desak xato bo'lmaydi.

Mutaassiblikni asosiy sabablaridan biri "dinda chuqur ketish" deb tariflanadi. Bu chuqur ketish diniy bilimlarni egallash orqali to'g'ri toat-ibodat qilish asosida dindoshlariga o'zlashtirgan bilimlarni nutqi va yozgan kitoblari orqali yetkazishni tushunish kerak emas. "Dinda chuqur ketish" dinga oid bir nechta qarashlarni, rahnamolari tomonidan berilgan bilimlarni yodlab olib unga bilib bilmay ko'r – ko'rona amal qilish va boshqalardan ham amal qilishni talab etish tushiniladi.

Yana bir diqqatga sazovor tomoni aksari mutaassiblikka berilgan shaxslar yoshlariga qaramay tashqi ko'rinishga (imijga) katta e'tibor qaratadilar. Misol uchun; soqol o'stirish, yoqasiz ko'ylak, tasbix va xokazo.

Shaxsni mutaassibligiga sabab bo'luvchi ijtimoiy omilga e'tibor qaratadigan bo'lsak. Mutaassiblik botqog'iga botganlarning aksari odamovi, maxalla, qo'ni-qo'shnilar bilan kirdi-chiqdiga moyilligi yo'q, ko'pchilik e'tiboridan chetdagi qolgan shaxslar bo'lib, ular zamon bilan hamnafas bo'la olmaydigan, jamiyatda o'z o'rniga va fikriga ega bo'lmagan shaxslar ekanliklarini e'tirof etish lozim.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yhati.**

1. Abdurahmonov.F, Abdurahmonova.Z. Din psixologiyasi .-T. O'zRFA Falsafa va huquq instituti, 2011.
2. Ardashkin.I B. Psixologiya religiy: uchebnoe posobie. Tom PTI. 2009
3. Baker.A. Noviy religiozny dvijeniya/A.Bakera.-SPb: Russkogo Xristianskogo Gumanitarnogo instituta. 1997
4. Djems.U. Volya k vera/ U. Demis – M. Respublika 1997.
5. Zerko. Yu. M. Psixologiya i religiya.:Aleteyya,2002

---

<sup>1</sup>Qobusnoma. "Uktuvchi" 1986 й

- 6.Valiev.B. N. Din psixologiyasi va uni fanlar tiimidagi o‘rni/Toshkent islom universitetining ilmiy-tahliliy axboroti. 2012y 4-soni.
- 7.Valiev. B. N, Rasulov.A.I. Din psixologiyasini o‘qitishning innavatsion metodlari/ T “Yangi asr avlodi” 2013
- 8.Rasulov.A.I, Tursunov.L.S. Diniy bag‘rikenglik psixodiagnostikasi: nazariya va amaliyot.T. Movarunnahir, 2017
- 9.G‘oziev. E.G‘. Umumiy psixologiya. T. O‘qituvchi. 2010
- 10.Diniy bag‘rikenglik va mutaassiblik yuz savolga-yuz javob/ Toshkent islom universiteti birlashmasi nashiriyot matbaa 2017